

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

BARQAROR BIRIKMALARNING TILSHUNOSLIKDAGI TADQIQI

Sohiba Babanazarova

Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti, PhD,

sohibababanazarova@gmail.com

Annotatsiya: Dunyo va o'zbek tilshunosligida barqaror birikmalarni o'rganishga doir turli nazariy qarashlar va yondashuvlar mavjud bo'lib, ularga qanday birliklar kirishi borasida hali ham munozaralar davom etmoqda. Yillar davomida tilshunos olimlarning izchil tadqiqotlari natijasida barqaror birikmalarning o'ziga xos xususiyatlari aniqroq belgilab borilgan va ularning tarkibiy qismlari aniqlashtirilgan. Shunga qaramay, bu sohadagi izlanishlar hali ham nihoyasiga yetmagan. Aksincha, zamonaviy tilshunoslikda paydo bo'layotgan yangi ilmiy paradigmalarda barqaror birikmalarga yangi, noan'anaviy yondashuvlar asosida qayta qarashni taqozo etmoqda. Shu sababli, barqaror birikmalarni o'rganish tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan biri sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Mazkur maqolada turg'un birikmalarning mohiyati, ularning o'ziga xos jihatlari va erkin birikmalardan farqli tomonlari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, barqaror birikmalarni o'rganuvchi bo'limlar hamda ushbu sohada qo'llanadigan terminlar mohiyati yoritib berilgan. Tilshunoslikda turg'un birikmalarni o'rganishga oid turli yondashuvlar, ularning tarkibiy qismlari yuzasidan mavjud munozaralarga aniqlik kiritilib, turli olimlarning qarashlari tahlil qilingan va ularga nisbatan munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: barqaror birikmalar, frazeologizmlar, maqol, matallar, iboralar, o'xshatishlar, paremlar, erkin birikmalar.

Ma'lumki, tilshunoslikda ikki yoki undan ortiq so'zning o'zaro mustahkam aloqasi natijasida shakllangan, nutqimizga tayyor ko'rinishda qo'llaniladigan, tuzilishi va tarkibi qat'iy bo'lib, yagona ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan til birliklari turg'un birikmalar deb ataladi. Turg'un birikmalarning mohiyatini to'liq anglash uchun, avvalo, erkin va turg'un birikmalarni bir-biridan ajratib olish lozim, chunki tarkibida ikki yoki undan ortiq so'z bo'lgan birliklar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, qo'shma so'z, so'z birikmasi, gap, so'z qo'shilmasi, tasviriy ifoda, maqol, matal kabilar. Erkin birikmalar turg'un birikmalardan farqli o'laroq, nutq davomida hosil qilinadi. Ularning tarkibidagi ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlar grammatik va semantik yaxlitlikni vujudga keltirib, faqat nutq jarayonida mavjud bo'ladi va vaqtinchalik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Turg'un birikmalar tarkibidagi so'zlar esa o'zaro o'zgarmas qilib bog'langan va nutq jarayoniga qadar mavjud bo'lib, biz ularni nutqimizga tayyor holatda olamiz.

Demak, erkin va turg'un birikmalarning differensial belgisi “tayyorlik” yoki “barqarorlik” belgisidir. Bu belgiga ko'ra oppozitsiyaga kirishuvchi so'z birikmasining turg'un birikma a'zosi kuchli, markerlangan, erkin a'zosi esa kuchsiz, markerlanmagan a'zo hisoblanadi [4. 17].

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Barqaror birikmalar tarkibiga, odatda, frazeologizmlar, maqol, matallar va aforizmlar kiritiladi. Lekin aynan qaysi til birliklari barqaror birikmalar tarkibiga kirishi yoki ularning nomlanishi haqidagi fikrlar turlicha. Avvalo, tilshunoslikning barqaror birikmalarni o'rganuvchi ikkita bo'limi, ya'ni frazeologiya va paremiologiya haqida to'xtalsak. Shu paytgacha tilshunoslikda frazeologiya bo'limi keng va tor ma'noda tushunilib, tarkibi va komponentlari haqida turli fikrlar bildirilgan. Masalan, rus tilshunosi V.V.Vinogradov ta'limoti asosida frazeologiyaniing doirasi ancha toraytirildi va tor tushuncha tarafdorlari frazemalar sifatida faqat iboralarni tan olishdi. Lekin keyinchalik ushbu andazalardan chetlashilganligini va frazeologizmlar doirasi kengaytirilganini kuzatishimiz mumkin. Frazeologiyani keng ma'noda tushunish tarafdorlaridan N.M.Shanskiy o'z ma'nosi, tarkibi va tuzilishi jihatidan doimiy bo'lgan ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topgan, tayyor lisoniy birlik sifatida taqdim etiladigan barcha turg'un birliklarni, jumladan, maqol, matal va aforizmlarni ham frazeologizmlar tarkibiga kiritadi [7. 30]. Shuningdek, “Lingvistik ensiklopedik lug‘at”da ham bunday birikmalarning barchasi “frazeologizm” atamasi ostida ifodalangani holda, idiomalar, maqol va matallar; qanotli so‘zlar, aforizmlar; *Ishlar qanday? Kayfiyatlar yaxshimi?* singari shtamplar uning tarkibiga kiritilganini kuzatishimiz mumkin. Frazeologizmning muhim va universal belgisi sifatida “mazmuniy transpozitsiya”, “turg'unlik” va “tayyorlik” belgilari e'tirof etiladi [4. 18].

Rus tilshunoslari N.F.Alefirenko va N.N.Semenenko frazeologizmlarga quyidagicha ta'rif berishadi: “Har bir xalqning tilida nutqda so‘z kabi takrorlanadigan, muloqot yoki matn yozish jarayonida yaratilmaydigan barqaror obrazli iboralar mavjud. Bunday turg'un birikmalar frazeologizmlar, frazeologik birliklar yoki frazemalar deyiladi, ular birgalikda tilning frazeologik tarkibini yoki frazemikani tashkil qiladi. Ularni o'rganuvchi fanga frazeologiya deyiladi” [1. 7].

O'zbek tilshunos olimlaridan H.Berdiyev va R.Rasulovlar paremalarni o'rganuvchi paremiologiya va frazeologiyani bir-biridan farqlagan holda, paremiologiya frazeologiya bilan uzviy bog'liq ekani, “paremiologiya tilda turli xarakterdagi barcha frazeologizmlarni o'rgansa, frazeologiya uning bir qismi sifatida faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganishi”ni ta'kidlaydilar [3. 11-12]. Biz ham paremiologiya va frazeologiyaniing bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgani holda alohida bo'limlar sifatida qabul qilishni ma'qul ko'rdik va barcha barqaror birikmalarga nisbatan paremalar, iboralarga nisbatan frazeologizmlar atamalarini qo'lladik. Chunki ko'pchilik tilshunos olimlarning fikricha, maqollar folklordan bo'lmagan aforizmlar bilan bir qatorda frazeologiya sohasiga kirmaydi. V.P. Jukov

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

maqol va frazeologik birlik o'rtasidagi asosiy farq maqolning gap shakli ekanligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, maqollar frazeologik birliklardan semantik va intonatsion to'liqligi, sintaktik bo'linishi bilan farqlanadi. Maqolning asosini frazeologik birliklar kabi tushunchalar emas, balki hukmlar tashkil etishi ham juda muhimdir. Bu dalillarning barchasi paremiologiyani mustaqil fan sifatida ajratish uchun asosdir [1. 241-242].

Ayrim manbalarda paremalar paradigmasini hosil qiluvchi “barqarorlik”, “tayyorlik”, “semantik transpozitsiya” belgilarini o'zida mujassam qilgani bois topishmoqlar ham paremalar qatoriga kiritiladi [4. 20]. Agar yuqoridagi belgilar paremalarning muhim belgilari hisoblansa, unda paremalar qatoriga turg'un o'xshatishlarni ham qo'shishimiz mumkin bo'ladi, chunki turg'un o'xshatishlar ham ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topib, tarkibining yaxlitligi, o'zgarmasligi, nutqqa tayyor olib kirilishi jihatidan barqaror birliklarga xos xususiyatlarni o'zida namoyon etadi hamda uni barqaror birliklar bilan bir qatorda o'rganishimizga asos bo'la oladi. Demak, turg'un birikmalarning barchasi “tayyorlik” belgisi bilan bir butunlikni hosil qiladi [4. 17]. Shu bilan birga ular ma'lum bir belgilar bilan bir-biridan farqlanadi. Tilshunos Sh.A.Ganiyeva turg'un birikmalarni o'zaro birlashtiruvchi va farqlovchi oltita relevant belgi, ya'ni barqarorlik, tayyorlik, semantik transpozitsiya, informativ tugallik, muallifga egalik va jumboqlikni sanab o'tadi [4. 23]. Bundan tashqari, Z.K. Tarlanov barqaror birikmalarga xos “aksiomatik belgi”ni e'tirof etadi [6. 65-66]. Xususan, maqol, matal va aforizmlar nutq aktida “aksiomatik” vazifani bajaradi, ya'ni ular isbotga muhtoj emas. Didaktiklik va variantlashish belgisi ham barqaror birikmalarning farqlovchi belgisi bo'lishi mumkin. Chunki maqollar variantlashish xususiyatiga ega, lekin aforizmlarda bunday xususiyat yo'q.

Ko'rib chiqqanimizdek, barqaror birikmalar, ularning nomlanishi, tarkibi borasida dunyo tilshunosligida turli fikrlar mavjud. Yillar davomida ko'plab tilshunos olimlar tomonidan tilning ushbu birliklarining turli jihatlari keng o'rganilganiga qaramay, ushbu izlanishlar bu boradagi tadqiqotlarni yanada kengaytirishga turtki beradi, chunki paremalar har qanday tilning eng katta xazinasini va bu xazinada xalqning ko'p asrlik mehnat va ma'naviy faoliyati davomida olgan anglashlari, o'tmishi, axloqiy qadriyatlari, diniy qarashlari va e'tiqodlari saqlanganligi bois har qanday tilni o'rganishning bitmas-tuganmas manbayidir. Barqaror birikmalar go'yoki tarixning “aks-sadolari” sifatida nafaqat mutaxassis filologlar, balki turli xalqlarning tarixi, qadriyatlari bilan qiziqqan har bir kishi uchun qiziq faktlar bera oladi.

Tilning paremiologik fondi bugungi kunda keng o'rganilayotgan bo'lsa-da, uning o'rganilish tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Maqollar va matallar birinchi

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

bo'lib Aristotel tomonidan tasniflanib, o'rganilgan [8]. U maqollar o'zining qisqaligi tufayli saqlanib qolgan eski falsafaning elementlari ekanligini ta'kidlagan. Qadimgi shoirlar Gomer va Gesiod, shuningdek, Aristofan va Meandr o'z she'rlarida maqollardan foydalanganlar.

Yevropada barqaror birikmalarni ilmiy asosda o'rganish XX asrdan boshlandi. Barqaror birikmalarning birinchi lug'ati 1929-yilda G.L.Apperson [2. 729] tomonidan nashr qilingan bo'lsa-da, ingliz maqol va matallarini o'rganish bo'yicha birinchi fundamental asar 1931-yilda A.Taylor (The Proverb) [9] tomonidan nashr qilingan. Ushbu asar bugungi kungacha paremiologik tadqiqotlarda standart ish bo'lib qolmoqda va butun dunyo bo'ylab paremiologlar eng ko'p havola qilgan asar hisoblanadi, chunki kitob olimlarning keyingi tadqiqotlari uchun muhim takliflar bergan. O'zi poliglot bo'lgan Taylor kitobini yozish davomida ko'plab xorijiy tillardagi maqollarni keltirdi, ularni ingliz tiliga tarjima qilgan bo'lsa ham, maqollarni asl tillarida keltirishi, taqqoslashi paremiologiya va folklorning regional, milliy va xalqaro ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Shundan so'ng bu boradagi tadqiqotlar ancha kengaydi. Taylor kitobda paremiologiyani batafsil sharhlaydi, maqollarning tuzilishi, turlari, variantlari hamda maqol, matal va xalq rivoyatlari o'rtasidagi munosabat haqida bahs yuritadi. Shuningdek, maqollarning mazmuni ko'rib chiqilib, ularda urf-odat va xurofotlar, tarixiy-madaniy masalalar, huquqiy tushunchalar, etnik yoki milliy stereotiplarning aks etishi izohlanadi. Maqollarda metafora, personifikatsiya, parallelizm, qofiya kabi stilistik vositalar ko'rib chiqiladi, adabiyotdagi vazifasiga urg'u beriladi hamda ularda milliy, etnik va axloqiy xususiyatlarning aks etishi muhokama qilinadi.

O'zbek tilshunosligida ham dastlab rus tilshunosi V.V.Vinogradov ta'limoti asosida frazeologizmlar doirasi ancha toraytirilgan va faqat ko'chma ma'noga asoslangan barqaror birliklarnigina frazeologizmlar tarkibiga kiritgan bo'lsalar, keyinchalik V.V.Vinogradov andazalaridan chetlashish holatlari kuzatila boshlandi. Natijada frazeologizmlar tarkibiga faqat ko'chma ma'noli barqaror birikmalargina emas, balki tilda oldindan birikma holda mavjud bo'lib, nutqqa tayyor holda olib kiriladigan barcha barqaror birikmalar kiritila boshlandi. Natijada maqol, matal, hikmatli so'zlarga ham frazeologizmlar sifatida qarala boshlandi [5. 404].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алефиренко Н.Ф., Семененко Н.Н. Фразеология и паремология. Учебное пособие для бакалаврского уровня филологического образования. — М.: Флинта: Наука, 2009. Ст 7.
2. Apperson G.L. English Proverbs and Proverbial Phrases: A Historical Dictionary. London & Toronto by J.M.Dent and sons limited and in New York by E.P.Dutton&co.inc. P-729.
3. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиялогик луғати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1982. — Б. 11-12.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

4. Ganiyeva Sh. O'zbek frazeologizmlari strukturasi (shakliy va mazmuniy modellashtirish). Fil, fan, fals, dok, diss. Farg'ona, 2017, 17-bet.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar II jild, Toshkent, Akademyashr, 2012, 404-bet.
6. Тарланов З.К. Русские пословицы: синтаксис и поэтика. Петрозаводск: ПГУ, 1999. Ст 65-66.
7. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. 3-е изд., испр. и доп. М.: Высш. шк., 1985.
8. <https://cyberleninka.ru/article/n/paremiologiya-kak-razdel-lingvistiki-diahronicheskiy-i-sinhronicheskiy-podhody>
9. https://openlibrary.org/books/OL22854218M/The_proverb